

Namangan viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 20,6 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil 1- aprel holatiga, birlik	2025-yil 1- aprel holatiga, birlik
Mingbuloq tumani	1 026	1 106
Kosonsoy tumani	1 311	1 205
Namangan tumani	1 420	1 212
Norin tumani	1 153	1 058
Pop tumani	1 569	1 530
To'raqo'rg'on tumani	1 479	1 301
Uychi tumani	1 326	1 197
Uchqo'rg'on tumani	1 627	1 157
Chortoq tumani	1 439	1 326
Chust tumani	1 987	1 785
Yangiqo'rg'on tumani	1 101	1 126
Namangan sh.	7 011	6 567

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillastirildi

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-martida 988 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 432 ta, sanoatda 140 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 139 ta hamda boshqa xizmatlarda 89 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Namangan shahrida 268 ta, Kosonsoy tumanida 108 ta, Mingbuloq tumanida 86 ta, Pop tumanida 76 ta hamda Chortoq tumanida 74 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2024-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Mingbuloq tumani	55	86
Kosonsoy tumani	60	108
Namangan tumani	41	43
Norin tumani	72	63
Pop tumani	86	76
To'raqo'rg'on tumani	51	41
Uychi tumani	52	56
Uchqo'rg'on tumani	86	51
Chortoq tumani	76	74
Chust tumani	82	67
Yangiqo'rg'on tumani	65	55
Namangan sh.	328	268

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 67,3% ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,9 foizga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 305,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 44,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 106,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on tumani (100,0 %), Norin tumani (99,8 %), Pop tumani (91,5 %) va Namangan tumani (65,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 2 293,6 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 92,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 107,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kosonsoy tumani (99,5 %), Norin tumani (99,4 %), Chortoq tumani (98,6 %) va To'raqo'rg'on (98,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 9 723,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 78,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 138,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Mingbuloq tumani (95,6 %), Pop tumani (90,7 %), Uychi (90,0 %) va Yangiqo'rg'on(90,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 3 311,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 98,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan sh. (99,6 %), Chust (99,6 %), Chortoq (99,4 %), To'raqo'rg'on (99,3 %) va Yangiqo'rg'on (99,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 4 758,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 90,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 105,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Uychi (98,8 %), Kosonsoy (98,4 %), Yangiqo'rg'on (98,3%) va Uchqo'rg'on (97,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 7 831,7 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 73,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 108,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Mingbuloq (85,8 %), Yangiqo'rg'on (84,8 %), Namangan (83,9 %), Norin (82,9 %), Uychi (82,2 %) va Kosonsoy (82,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 57,7 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 40,4 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on, Norin, hamda Pop tumanlarida – 100,0 % ni, Chortoq tumanida – 90,3 %, Uychi tumanida – 66,2 % va Namangan shahrida – 63,5 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar- martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 148,9 million AQSH dollarini yoki jami importning 71,5 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Pop tumanida – 99,7 %, Yangiqo'rg'on tumanida – 94,9 %, Uychi tumanida – 92,1 %, Kosonsoy tumanida – 90,0 %, Norin tumanida – 89,9 %, Mingbuloq tumanida – 77,9 %, Namangan tumanida – 75,9 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,9 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,9 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,3 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-,yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,4,% ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,5,% ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,2 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-martida 44,6% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida esa 28,1 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-martida nisbatan 16,5 birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-martida 51,6 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 66,5 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-martida 3,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 5,5 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-martida 72,5 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 48,7 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-martida 27,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 49,6 % yoki 22,5 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-martida 0,4,% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 1,4 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 31,8 % ni, xizmatlar sohasida – 30,5,% ni va sanoatda – 22,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 75,5 % ni, qurilishda – 75,4 % ni va sanoatda – 71,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – 10,1 % ni, xizmatlar sohasida – 6,4 % ni va sanoat va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,1 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:
A. Javharov
69 211-72-00 (5030)

Manzil:
160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.
